

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

KASBIY TA‘LIM KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fizika-matematika fakulteti

dekani _____ prof. A.Tashatov

“ _____ ” _____ 2015-yil

5111000 – Kasb ta‘limi (5320900- YeSBKI vaT) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun **Karimov Elbekningning “Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari” mavzusini o‘qitishda “To‘rt pog‘onali” metoddan foydalanish** mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi talaba: _____ *Karimov Elbek*

Ilmiy rahbar: _____ *Akbarova N.A.*

“ _____ ” _____ 2015-yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Kasbiy ta‘lim kafedراسi mudiri

_____ dots. A. Vardiyashvili

“ _____ ” _____ 2015-yil

Qarshi-2015

MUNDARIJA

Kirish	
I. Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari	
1.1 Gavda tuzilishlari haqida ma'lumot	
1.2 Qomaddan o'lcham olish	
1.3 Gavdada bemaol turish qo'shimi	
II. "Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari" mavzusini o'qitish uslubiyoti	
2.1 O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohatlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar zaruriyati	
2.2 Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari. didaktik jarayon tuzilmasiga asoslangan o'qitish metodlari	
2.3	
2.4 "Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarni olib borish texnologiyasi.	
2.4.1 Gavda tuzilishi haqida ma'lumot" mavzusini amaliy mashg'ulot loyihasi.	
III. Mehnat gigienasi va xavfsizligi	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida bilimli, malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu e'tiborning yorqin dalili sifatida ijtimoiy-milliy ahamiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi va birligi negizida malakali kadrlarni tayyorlash mohiyatini ifodalaydi.

Ayni vaqtda respublikada ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, erkin va mustaqil fikrlovchi, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi.

Jamiyatning malakali kadrlarga ega bo'lishining ijtimoiy-milliy ahamiyatini ifodalay ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qo'yidagilarni alohida ta'kidlaydi: "... bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz".

Malakali kadrlarni tayyorlashda yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanuvchi – akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'ziga xos o'rin tutadi. Binobarin, bu kabi ta'lim muassasalarida ta'lim olish "... o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi".

Kasb-hunar kollejlari mustaqil hayot ostonasida turgan yoshlarga "... bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan

chuqur nazariy bilim olish” imkoniyatini yaratar ekan, ularni kelgusida jamiyatning faol a’zolari bo’lib etishishlarini ta’minlaydi.

Kadrlar tayyorlash jarayonining uchinchi bosqichi sanaluvchi mavjud sharoitda respublikada zamonaviy bino va texnik jihozlarga ega bo’lgan kasb-hunar kollejlarning faoliyat yuritayotganligi, har yili ularda ta’lim olayotgan minglab bitiruvchilarning mustaqil hayotga qadam qo’yayotganliklari malakali kichik mutaxassislarni tayyorlashga qo’yilgan ijtimoiy buyurtmaning samarali bajarilayotganligidan dalolat beradi.

Yangi turdagi ta’lim muassasalaridan bo’lgan kasb-hunar kollejlarda ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish, o’quvchilarning kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishga qo’yilayotgan ijtimoiy talablarni to’la qondirish mazkur ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ana shu maqsadda zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish, ta’lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish, pedagoglarni ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologiyalar bilan qurollantirish zaruriyati BMI mavzusining “Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari” mavzusini o’qitishda “To’rt pog’onali” ta’lim metodidan foydalanish” deb belgilanishi maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqladi.

Ishning maqsadi: “KHKda “Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari” mavzusini zamonaviy talim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o’quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini yaratish va qo’llash yo’llarini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Gavda tuzilishlarini organish;

- asosiy antropometrik nuqtalar va ularning konstruksiyalashda tutgan o'rini bo'yicha kerakli ma'lumotlar to'plash;

- Pedagogik texnologiyalarni qo'llash metod va vositalarini o'rganish;

- Kasbiy ta'lim bo'yicha muhandis-pedagoglarni tayyorlash jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaradorligi haqida mulohaza yuritish

- KHKda "Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish

Zamonaviy ta'lim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda istiqbolli natijalarni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni tajriba sinovidan o'tkazish.

BMIning uslubiy yangiligi:

- KHKda "Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim vositalari asosida o'qitish uslubiyoti ishlab chiqilganligi;

- "Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari" mavzusidagi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borish texnologik xaritalari tuzilganligi.

- mavzuni o'qitish yuzasidan visual materiallar tayyorlanganligi.

BMI amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- mavzu yuzasidan tayyorlangan dars ishlanmalaridan kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari, amaliyotchilar, to'garak rahbarlari maxsus fanlarni o'qitish jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

I-BOB. KIYIM YANGI MODELI KONSTRUKSIYASINI HISOBLASH VA TUZISHNING DASTLABKI SHARTLARI

1.1 Gavda tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot

Odam tanasining murakkab shakliga mos kiyim loyihalash uni tafsiflaydigan a'zolarining anotomik tuzilishi hamda tashqi shakliga xos xususiyatlari, aholining tanasiga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik qonuniyatlari va razmerli standartlari tuzilishi haqidagi ma'lumotlarga, gavda bilan kiyim orasidagi qo'shim miqdorlariga asoslangan.

Plastik anatomiya kishi gavdasining tashqi tuzulishi, qad-qomatni o'rganadi. Gavda odatda tana, bo'yin, bosh, qo'llar va oyoqlarga bo'lib o'rganiladi.

1. Odamning umurtqa pog'onasi egri bo'ladi: umurtqa pog'onasi bo'yin va bel qismlarida egrilik chizig'i oldinga, ko'krak va bel qismlarida esa orqaga yo'nalgan. Umurtqa pog'onasining egrilik darajasi odamning qaddi-qomatini belgilaydi.

2. Qo'lning erkin suyaklari jumlasiga yelka, tirsak va bilaklari kiradi. Yelka suyagi tik vaziyatda joylashgan yoki bir oz orqaga yoki oldinga og'gan bolishi mumkin. Yelka, tirsak hamda bilak suyaklari birlashgan joyda burchak hosil bo'ladi, u yengning shakliga ta'sir etadi.

3. Oyoqlarning shakli yonbosh o'qi bilan boldir o'qining bir-biriga nisbatan qanday joylashganligiga qarab, oyoqlar normal, xomutsimon va sirkulsimon bo'lishi mumkin.

4. Tananing bo'yin asosidan to yelka bo'g'imlarigacha bo'lgan qismi yelka deb ataladi. Yelka normal, keng va tor bo'lishi mumkin. Shuningdek qiyalik darajasiga qarab normal, baland va past bo'lishi mumkin.


5. Qorinning ham asosiy uchta shakli mavjud: tekis, ichga tortilgan va dumaloq-do'ppayib chiqib turgan holati mavjud. Qorinning shakli jinsga, yoshga va oriq-semizlikka bog'liq bo'ladi.

6.Orqa odatdagicha yoki umurtqa bo'limlari salgina bo'rtib chiqqan (to'lqinsimon), bukchaygan va to'g'ri bo'lishi mumkin.


7.Umumiy belgilari deganda, tananing uzunligi, odamning bo'yi, ko'krak aylanasi hamda vazni kabi eng yirik belgilar tushuniladi.

Kiyimni konstruksiyalash uchun proporsiya (mutanosiblik) ning katta ahamiyati bor. Proporsiya deganda, tananing turli qismlarining o'lchamlarini bo'y (rost) ga nisbati tushuniladi; bu nisbat protsentlar bilan ifodalaniladi. V.V. Bunak katta yoshdagi erkaklar va ayollar o'rtasida ko'p uchraydigan tana proporsiyalari uchta asosiy tipga bo'linadi: dolixomorf tip (1-rasm, a)-bu tipga mansub kishilarning oyoqlari uzun, tanasi qisqa va ixcham (kambar) bo'ladi; braximorf tip (1-rasm, b)-bu tipga munosib kishilarning oyoqlari oldingiga nisbatan qisqa, tanasi uzun va serbar bo'ladi; mezomorf tip (1-rasm, v)-oraliq tip hisoblanadi. Tana proporsiyalari yoshga va jinsga qarab o'zgaradi.

Jussa (tana tuzulishi) muayyan belgilar majmuiga bog'liq bo'lib, kishining qaddi-qomatini ifodalaydi. V.V. Bunak erkaklarning gavda tuzulishi, ya'ni jussasini yetti tipga bo'ladi; shulardan uchtasi asosiy hisoblanadi: ko'krakdor (ko'ksi baland) tip; muskullari rivojlangan tip va qorindor tip.




Erkaklar gavdasining proporsiya tiplari (1-rasm)



Erkaklar qomadining tiplari (2-rasm)

GAVDANING ASOSIY ANTROPOMETRIK NUQTALARINI ANIQLASH

Konstruksiyalash maqsadida quyidagi nuqtalardan foydalaniladi (3-rasm).



Gavdaning asosiy antropometrik nuqtalari joylashishi (rasm-3)

a-cho'qqi nuqtasi (bosh eng cho'qqi nuqtasi);

b-bo'yin nuqtasi (yettinchi bo'yin umurtqasining o'tkir o'simta uchi);

v-bo'yin asosining nuqtasi (bo'yinning aylana chizig'i yelka qiyaligi chizig'i bilan kesishgan nuqtasi);

g-o'mrov suyagining nuqtasi (o'mrov suyagining to'sh suyagiga birikkan yuqori nuqtasi);

d-to'sh suyagining yuqori nuqtasi (to'sh suyagi yuqorisidagi qirqimning o'rtasi);

y-to'sh suyagi o'rtasidagi nuqta (to'sh suyagining o'rta chizig'ida to'rtinchi juft qovurg'alar uchi birikkan sathda joylashgan);

j-yelka akramial nuqtasi (ko'ktak akramial o'simtasining yon tomonidagi yeng bo'rtgan nuqtasi);

z-yelka nuqtasi;

i-tirsak nuqtasi (bilak suyagining tashqi tomonidagi yuqori uchi);

k-ko'krak uchi nuqtasi;

l-qirra nuqtasi (yon bosh suyak qirrasining chekka eng ko'proq turtib chiqqan nuqtasi);

m-tizza nuqtasi (tizza qopqog'ining markazi);

n-qo'ltiqning oldingi burchagi (qo'l pastga tushirilgan holda qo'ltiq chuqurchasining oldingi cheti hosil qilingan yoyning eng baland nuqrasi);

r-bel chizig'ining balandligi nuqtasi;

1.2 QOMADDAN O'LCHAM OLISH

O'lchamlarni olishdan avval figuraning tipini, qomatini va uning asimmetriyalarini aniqlash maqsadida figuraning tuzilishi o'rganiladi. O'lchamlar o'ng tomondan olinadi, asimmetriyali joylar o'ng va chap tomonlardan o'lchanadi.

O'lchamlarni olish jarayonida turli asbob va moslamalardan foydalaniladi. Aylanalar, bo'ylama, ko'ndalang va yoysimon o'lchamlar santimetrli tasma yordamida olinadi. O'lcham olish vaqtida tasmani tananing yumshoq to'qimalariga botirmasdan tanaga zich yopishtirib o'lchanadi. Figuraning eng ingichka joyi qat'iy gorizontol holatda rezina bilan bog'lanadi.

Amaliy ishlarda avval yarim aylanalar ,bo'yin, ko'krak birinchi, ko'krak ikkinchi, ko'krak uchinchi, bel, bo'ksa) o'lchanadi. Bu o'lchamlar bo'yicha figuraning guruhi aniqlanadi ,2.4 va 2.5 rasmlar).

O'lchamlarning keyingi guruhiga ko'krak kengligi birinchi, ikkinchi, ko'krak markazi, orqa kengligi kiradi.

Yelka aylanasi, yelka kengligi, yeng uzunligi odatda asosiy uchastkalar o'lchamlaridan so'ng olinadi.

Figuraning o'lchamlari quyidagi bosh harflar bilan shartli ravishda belgilanadi: O - to'la aylanalar; C - yarim aylanalar; K — kengliklar; U — uzunliklar; masofalar; R - bo'y; B — balandliklar; M — markazlar orasidagi masofalar. Bosh harflar yonida figuraning o'lchanayotgan joyini bildiradigan indekslar qo'yiladi. Aylanalar, balandliklar va yelka qiyaligining kengligi o'lchamlarning qiymati to'liqyoziladi va chizmaning hisobida to'liq o'lchanib, yarmi yoziladi, chunki chizma buyumning faqat yarmiga quriladi.



Olingan o'lchamlarning to'g'riligi tipaviy figuralar o'lchamlari bilan taqqoslab, tahlil qilib tekshiriladi.



Muayyan gavda va tipaviy gavda o'lchamlari katta qiymatga farqpangan hodtso o'lchamlar takror olinadi va tana tuzilishining qanday xususiyatlari ta'sir etgani aniqlanadi.



Buyumlar konstruksiyasini hisoblashda va qurishda ishlatiladigan asosiy o'lchamlar hamda figurani o'lchash metodlari 4 - javdadda keltirilgan




QOMADDAN O'LCHAM OLISH TEXHNOLOGIK HARITA



4-jadval

<i>Texnologiya asosida faoliyat turlari</i>	<i>Shartli belgil anishi</i>	<i>Chizma</i>	<i>Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi</i>
1	2	3	4
1. Bo'y			Kallaning yuqori nuqtasidan polgacha bo'lgan masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi.
2. Bo'yin asos nuqta balandligi	t.o.sh		Poldan bo'yin nuqtasigacha masofa vertikal o'lchanadi.
3. Bo'yin nuqta balandligi	sh.t		Poldan yelka nuqtasigacha masofa vertikal o'lchanadi.
4. Yelka nuqta balandligi	p.t		Poldan vertikal bo'yicha orqa qo'ltiq osti burchagigacha masofa.
5. Orqa qo'ltiq osti burchagining balandligi	z.u		Bo'yin asos nuqtasidan ko'krak uchi nuqtasigacha o'lchanadi.
6. Ko'krak balandligi	os		

7.Bo'yin aylanasi	sh		Santimetr tasmaning ostki cheti bo'yin nuqtasiga yotqiziladi. Yondan va olddan tasma bo'yin asosidan o'tib, o'mrov nuqtasida biriktiriladi.
8. Ko'krakning birinchi aylanasi	r1		Santimetr tasma gavda ort qismi bo'ylab gorizontal qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib, oldinda ko'krak bezlari asosining ustidan o'tadi.
9. Ko'krakning ikkinchi aylanasi	r2		Santimetrli tasma ko'kraklarni turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab, qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib, oldinda ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab o'tadi.
10. Ko'krakning uchinchi aylanasi	r3		Santimetrli tasma ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari orqali gavda atrofidan o'lchanadi.
11. Bel aylanasi	t		Santimetrli tasma bel chizig'i darajasida eng ingichka joydan tanani aylanib o'tadi.
12. Bo'ksa aylanasi	b		Santimetrli tasma tana atrofidan gorizontal aylanib, qorinning turtib chiqqanini hisobga olib, dumbaning turtib chiqqan nuqtalariorqali o'tadi.

13. Yelka aylanasi	p		Qo'lning yuqori qismidan aylantirib, qo'ltiq chuqurlarining burchaklariga taqib gorizontal o'lchanadi.
14. Yelka kengligi	h_p		Bo'yin asosining nuqtasidan yelka nuqtasigacha o'lchanadi.
15. Tirsakkacha qo'l uzunligi	r.log		Yelka nuqtasidan tirsak nuqtasigacha bo'lgan oraliq o'lchanadi.
16. Qo'lning bilakkacha uzunligi	r.zap		Yelka nuqtasidan bilakgacha o'lchanadi.
17. Gavda old qismining belgacha uzunligi	t.p.		Ort tomondan bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi bo'ylab, old tomonda ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari orqali bel chizig'igacha o'lchanadi.
18. Bo'yin asos nuqtasidan old bo'lak bel chizig'igacha bo'lgan oraliq	t.p		Bo'yin asos nuqtasidan ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari orqali bel chizig'igacha bo'lgan oraliq o'lchanadi.

19. Orqa yeng o'miz balandligi	pr.z		Bo'yin nuqtasidan ort bo'lak, qo'ltiq chuqurlik nuqtalari gorizontol o'lchanadi.
20. Ko'krak turtib chiqqan nuqtalarini hisobga olgan holda ort bo'lak belgacha uzunligi	bbjU		Bo'yin nuqtasidan umurtqa bo'ylab ko'krakning turtib chiqqan nuqtalariga qo'yilgan plastina orqali belgacha o'lchanadi.
21. Orqa bel chizig'idan bo'yin asos nuqtasigacha bo'lgan oraliq	t.s		Santimetrli tasma bel chizig'idan bo'yin asos nuqtasigacha umurtqa bo'ylab parallel o'tadi.
22. Yelka qiya baladligi	p.k		Bel chizig'ining umurtqa bo'ylab kesishgan nuqtasidan yelka nuqtasigacha qiya o'lchanadi.

23. Ko'krak kengligi	hg		Ko'krak bezlarining asosi ustidan qo'ltiq chuqurligining oldingi burchaklari orasi gorizontal o'lchanadi.
24. Ko'krak markazi	ig		Ko'krakning turtib chiqqan nuqtalarining orasi o'lchanadi.
25. Gavda ort qismining kengligi	hs		Gavda ort qismi bo'ylab qo'ltiq chuqurligining ortki burchaklari orasi gorizontal o'lchanadi.
26. Bo'ksa balandligi 27. Yubka uzunligi			O'tirgan holatda bel chizig'idan o'tirgan yuzagacha yon tomondan o'lchanadi. Bel chizig'idan istalgan uzunlikda o'lchanadi.

1.3 GAVDADA BEMALOL TURISH QO'SHIMI

Kiyim silueti yelka kengligi va balandligi, modelning etak kengligi bilan xarakterlanadi. Kiyim qay darajada gavdaga yopishib turishiga qaramay, uning ichki o'lchamlari odam gavdasining o'lchamlaridan katta bo'ladi. Shuning uchun kiyim konstruksiyasi asosining chizmasini tuzish uchun gavda o'lchamlarigina yetarli bo'lmaydi. Bir xil joylar yuzasida kiyim ichki o'lchamlarining gavda o'lchamlaridan farqining miqdori qo'shim deb ataladi va (Q) harfi bilan belgilanadi.

Qo'shimlar nimaga mo'ljallanganiga qarab minimal (texnik) K_{tex} va konstruktiv dekorativlik K_{kd} qo'shimchalarga bo'linadi. K_{tex} qo'shim bemalol harakat qilishni, bemalol nafas olishni taminlaydi. Ayollar ko'ylagi uchun ko'krakning yuqori nuqtasi darajasida K_{tex} 2 sm ga, jaket uchun esa 3 sm ga teng.

Konstruktiv-dekorativ qo'shimlar doimiy bo'lmaydi. Ularning qiymati kiyim turiga, uning siluetiga, shakli va boshqalarga qarab zamonaviy moda talabiga binoan o'zgaradi. Kiyim konstruksiya asosining chizmasini hisoblash qulay bo'lishi uchun maksimal zarur qo'shim K_{tex} bilan minimal qo'shim K_{kd} birga qo'shib olinadi. Bu umumlashgan qo'shim kiyimni gavdada bemalol turish qo'shimi deb ataladi.

Gavdada bemalol turish qo'shimi quyidagilarga bo'linadi.

K_q —ko'krak chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimi;

B_1Q —bel chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimi;

B_kQ —bo'ksa chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimi.

Ishlab chiqishda katta o'lchamli bo'yi past ayollar uchun K_q qo'shim 0,5 sm ga kamaytiriladi, kichik o'lchamli ayollar uchun esa aksincha 0,5 sm ga ko'paytiriladi. Qanday siluet bo'lmasin, yubkaning (shimning) bel chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimi 1 sm ga teng olinadi.

Kiyim turlari	Kiyim gavdaga yopishib turish darajasi (silueti)														
	<i>Juda yopishib turadigan</i>			<i>Yopishib turadigan</i>			<i>O'rtacha yopishib turadigan</i>			<i>Bemalol turadigan</i>			<i>Trapetsiya</i>		
	K_k	B_{lk}	B_l +	+	B_{lk}	B₌₊	K_k	B_{l+}	B_{l+}	+	B_{lk}	B₌₊	+=	B_{l+}	B_{k+}
Ko'ylak	2-2,5	0,5-1	0-0,5	3-4	1-2	1-1,5	4-5	3-4	2-3	6-7	4 dan	3 dan	7 dan yuqori	5 dan yuqori	Modelga binoan konstruktiv aniqlanadi
Jaket	2,5-3,5	1,5-2	0,5-1,5	4-5	3-4	1,5-3	6-7	5-7	3,5-5	8-9	7 dan	5 dan	9 dan yuqori	7 dan yuqori	
Palto	3,5-4	2-3	2,5-3	5-6	4-5	3-4,5	7-8	6-8	5-7	9-11	8 dan	7 dan	11 dan yuqori		

6- jadval

Kiyim turlari	Kiyim uchastkalarida bemalol turish qo'shimi									
	<i>Juda ham zich</i>		<i>Zich</i>		<i>O'rtacha</i>		<i>Keng</i>		<i>Juda ham keng</i>	
	Ort	Old	Ort	Old	Ort	Old	Ort	Old	Ort	Old
Ko'ylak	0,5-0,75	0	0,8-1,2	0-0,5	1,5-1,6	0,6-1	1,7-2	1,1-1,5	2 dan yuqori	1,5 dan yuqori
Kostyum	0,75-1	0	1,1-1,7	0-0,6	1,7-1,75	0,7-1,1	1,8-2,2	1,2-1,6	2,2 dan yuqori	1,6 dan yuqori
Palto	1-1,2	0	1,25-1,5	0-0,7	1,6-2	0,8-1,5	2,2-2,5	1,6-2	2,5 dan yuqori	2 dan yuqori

<i>Qo'shim beriladigan joylar</i>	<i>Qo'shim belgilari</i>	<i>Miqdori</i>
Ort bo'lak bel uzunligi	O_{rbu+}	0,2
Old bo'lak bel uzunligi	O_{lbu+}	0,2-0,4
Yeng o'miz chuqurligining bemalollik qo'shimi	$Ye_{no'b+}$	1-2
Ort bo'lak yoqa o'miz kengligining qo'shimi	$O_{ryoo'k+}$	0,5-1
Yeng o'miz kengligining qo'shimi	$Ye_{no'k+}$	0,5- Ye_{la+}

1.4. Kiyim detallari chizmasini chizish usullari va sistemasining qisqacha tavsifi

Maishiy xizmat sistemasida kiyim loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Kiyim loyihalash ishining asosini model tuzish va konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish tashkil etadi. Maishiy xizmat sistemasida kiyim loyihalash jarayoni uch bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda-modellashtiruvchi bosh tashkilot (SIOTSHL, respublika kiyim modellari uylari) har yili kiyimlar modelining yo'naltiruvchi (yetakchi) kolleksiyasini hamda kiyim loyihalashga doir muhim metodik ma'lumotlarni tayyorlaydi, modaning yo'nalishi bo'yicha, modaga mos formadagi va bichimdagi kiyimlarni loyihalash hamda tikishning o'ziga xos tomonlari to'g'risida, yangi materiallardan foydalanish haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqichda-korxonaning eksperimental xizmati xodimlari modellashtiruvchi bosh tashkilotdan olingan materiallarga asoslanib, kiyimlarning modaga mos modellari kolleksiyasini tuzadi.

Uchinchi bosqichda-ishlab chiqarish uchastkalari (atlyelar) sharoitida muayyan gavda uchun andaza tayyorlanadi; bunda rassomning ish papkasidagi modellardan ham eksperimental xizmat mutaxasislaridan olingan konstruktorlik hujjatlaridan foydalaniladi.

Kiyim detallarini yoyilmasini hosil qilishning mulyaj usuli va proporsional hisoblash usuli

Konstruktor faoliyatining eng qiyin va ma'suliyatli bosqichlari kiyim detallarining chizma-yoyilmasini CHIZISHDAN iborat. Bu bosqichdan ko'zlanadigan asosiy maqsad detallarning shakli va o'lchamini mumkin qadar aniqroq belgilash; shunday qilinsa, kiyim detallari yig'ilgandan keyin hosil bo'lgan formasi rassom formasiga mos keladi.

Kiyim detallarini hisoblash va chizma tayyorlashning mavjud metodlarini gruppalariga bo'lib, quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Mulyaj metodi;
2. Hisoblash-o'lchamlar metodi;
3. Proporsional metodi;


1. Mulyaj metodining mohiyati shindan iboratki, maniken yoki kishi gavdasiga maket material (asosiy gazlama, yengil yumshoq qog'oz yoki to'rkanva) modelning formasiga moslab, to'g'nog'ich bilan qadab qo'yilib, kiyim detallarining konturlari chizib chiqiladi. Bunda asosiy usul qadashdir.

2. Yakka buyurtma bo'yicha kiyim tikishda hisoblash-o'lchamlar metodi qo'llaniladi. Bu metodda kishi gavdasining o'lchamlari olinadi va kiyimning to'kisligi uchun qo'shiladigan chok haqi aniqlanadi. Gavdani o'lchab olingan ma'lumotlardan foydalanib, konstruksiya asosiy elementlarning o'lchami belgilanadi. Konstruksiya chizmalarining kam-ko'sti kiyimni kiygizib ko'rib yani o'lchov olish vaqtida aniqlanadi va bartaraf etiladi.

3. Konstruksiyalashning proporsional-hisoblash metodlaridan birinchi marta ko'plab kiyim tikishda foydalaniladi. Bu metodlar hisoblash-o'lcham metodlarining bir turidir; bunda bichish o'lchamlari hisoblash o'lchamlariga almashtirilgan; hisoblash o'lchamlari ikkita asosiy o'lcham belgisiga-ko'krak yarim aylanasining S_{k2} ga va bo'y R ga proporsional bog'liq holda belgilanadi. Biroq har bir muallif o'z bilimi va tajribasiga yarasha ish tutganligidan ayrim o'lchamlarni belgilashda katta farq kelib chiqadi. Analitik-hisoblash metodlarda bu kamchiliklar bartaraf etilgan; bu metodlarda o'lcho'v belgilari real qonuniyatlarga muvofiq va yetakchi o'lcho'v belgilari o'rtasidagi bog'lanishni nazarda tutib belgilanadi. SINIISHP «Kiyimni konstruksiyalash yagona metodi» hamda SIOTSHL «Yagona metodi» shular jumlasiga kiradi.

Gavdani (jussani) belgilab beruvchi asosiy morfologik belgilar umumiy belgilarini, mutanosiblikni, gavda tuzilishi va qad-qomadni o'z ichiga oladi.

Umumiy belgilar deganda, tananing uzunligi (odamning bo'yi, yani rost), ko'krak aylanasi (perimetri) hamda vazn (massa) kabi eng yirik belgilar tushuniladi.



Mulyaj metodi (rasm-4)

II-BOB. “KIYIM YANGI MODELI KONSTRUKSIYASINI HISOBLASH VA TUZISHNING DASTLABKI SHARTLARI” MAVZUSINI O’QITISH USLUBIYOTI

2.1. O’zbekistonda ta`lim sohasidagi islohatlar va ilgor pedagogik texnologiyalar zaruriyati

Mamlakatimiz rahbari I. A. Karimov ta`kidlaganidek: «mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta`lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o`rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshlandi». Yurtimizning kelajagi, uning ertangi taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz ham ma`lum ma`noda shu islohatlarning natijasiga bogliq edi. «Chunki ta`lim-tarbiya- ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib esa biz ko`zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo`lmaydi» degan yurtboshimizning fikrlaridan ta`lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta`minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Ta`lim-tarbiya tizimini, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishning muhim omillari Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko`rsatib berildi va ular quyidagilardan iborat:

- respublikaning demokratik huquqiy va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo`lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotida tub o`zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo`nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo`liga izchil o`tayotganligi, mamlakat eksport salohiyotining kengayayotganligi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta`lim ustuvorligi qaror topganligi;
- milliy o`zlikni anglashning o`sib borishi, vatanparvarlik, o`z vatani uchun iftixor tuyg`usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an`analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
- O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obru-e`tiborining mustahkamlanib borayotganligi

Ta`lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo`nalishlari:

- ta`lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta`lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta`limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o`qituvchi. O`quvchining ta`lim jarayoniga bo`lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;

- va bu islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Yangi ta`lim modeli. Ta`lim islohatlarini amalga oshirish va ko`zlangan maqsadlarga erishish uchun ta`limning yangi modeli yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uning tarkibiiy qismlari ko`rsatib berildi va ular quyidagilardan iboratdir:

shaxs- kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta`lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta`lim- malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo`lib, ta`limning barcha turlarini, davlat ta`lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko`rsatish muhitini o`z ichiga oladi;

fan- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish- kadrlarga bo`lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta`minlash jarayonining qatnashchisi.

Ta`lim sohasidagi «portlash effekti» nazariyasi. «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta`lim-tarbiya sohasidagi islohatlar va ta`limning yangi modeli amalga oshib borsa, mamlakatimizda juda katta o`zgarishlar sodir bo`lishi mumkinligini yurtboshimiz quyidagicha ko`rsatib beradi:

«Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada biz hayotimizda ijobiiy ma`nodagi «portlash effekti» ga, ya`ni uning samarasiga erishamiz»

Bu samara natijasida esa quyidagilar yuz berishi nazarda tutiladi:

Birinchidan, ta`lim qonuni va Milliiy dasturimizda nazarda tutilgan vazifalar to`liq amalga oshgan taqdirda ular ijtimoiy-siyosiiy iqlimga ijobiiy ta`sir qiladi va natijada mamalakatimizda mavjud muhit butunlay o`zgaradi.

Ikkinchidan, ta`limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o`z o`rnini topish jarayoni tezlashadi.

Uchinchidan, ta`limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi.

To`rtinchidan, ta`limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro`yobga chiqarishda katta ahamiiyat kasb etadi, har bir inson o`zining qobiliyat, iste`dodini ishga sola oladi.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati qurilishi ta`minlanadi, model vositasida dunyodan munosib o`rin olishga, o`zbek nomini yanada keng tarannum etishga erishiladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlagan «portlash effekti»ga etib borish yo`lida uchraydigan qiyinchiliklarni engib o`tib borish va ularni hal etish masalalari faqat o`qituvchi- pedagoglarninggina vazifasi bo`lib qolmasdan, balki jamiyatimizni to`liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Har bir fuqaro tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishishi, yangi pedagogik vosita, usul va texnologiyalar bilan ta`minlanishi hozirgi kun talabidir.

Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlarida pedagogik texnologiya muammolari. Ta`lim tizimi va o`quv-tarbiya ishlari sohasiga turli o`zgarish, yangilik va pedagogik texnologiyalarni jalb qilish muammolari «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro`yobga chiqarish bosqichlarida o`ziga xos tarzda ko`rsatib berilgan. Mazkur dasturni ro`yobga chiqarishning birinchi bosqichi (1997-2001 yillar) da - «o`quv-uslubiy majmualarning hamda ta`lim jarayonini didaktik va axborot ta`minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish», ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)da - «ta`lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o`quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash, uzluksiz ta`lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish», uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da «ta`lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o`quv-tarbiya jarayonini yangi o`quv-uslu-biy majmualar, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan tulik ta`minlash» vazifalari belgilab qo`yilgan. (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.)

2.2. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari. didaktik jarayon tuzilmasiga asoslangan o`qitish metodlari

Yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta`lim tarbiya jarayonida foydalanish ma`lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiya (PT)ning o`ziga xos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko`rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ularni PT prinsiplari deb atash mumkin.

Prinsip - yunoncha «prinsipium» so`zidan olingan bo`lib, asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g`oya, umumlashgan talab kabi ma`nolarni anglatadi. Didaktikada olimlar prinsiplarni turlicha talqin qilishadi: pedagogik holatni yo`lga soladigan didaktik

holatlar, tavsiyalar (V.I. Zagviyazinskiy, L.I. Grisenko), o'qitishning me'yoriy asoslari (M.A.Danilov), didaktik maqsadga erishish usullari (I.A.Lerner) va xokazo.


Biz pedagogik texnologiya prinsiplari deganda loyihalangan o'quv tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talabalarni tushunamiz. Demak, u yoki bu pedagogik xodisa prinsip bo'lishi mumkin, qachonki uni o'quv jarayonida hisobga olish (rioya qilish) zarur bo'lsa, ya'ni unga tayanilsa.

PT prinsiplari didaktik prinsilardan tubdan farq qiladi va o'zida muhim sifat ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi.

Ta'lim prinsiplari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qilinadi.

Ta'lim prinsip (tamoyil)lari o'quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlariga, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga, barcha o'quv predmetlarini o'qitish masalalariga daxldor umumiy talablar, qoidalardir. Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari: (individual, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, oliy), sub`ektlari (o'qituvchi, o'quvchilar jamoasi), o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlari (ta'limning maksadi, vazifasi, natijalariga dahldor umumiy qoidalardir.

Ta`lim prinsiplari quyidagilar:



Ta`limning tarixiy rivojlanish bosqichlarida o`quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshiradigan PT mavjud bo`lganmi yoki bu fenomen bugun paydo bo`ldimi? Degan savolga akademik V.P. Bespalko quyidagicha javob beradi: «PT har doim har qanday o`qitish va tarbiyalash jarayonida mavjud, biroq eng maqbul o`qitish va tarbiyalash

texnologiyasini tanlash va anglagan holda boshqarish pedagogika fani va maktab amaliyoti imkoniyatlari doirasidan chetda qolayapti».

Maktab (barcha o'quv yurtlari) amaliyotida PT ning moddiy vositalari- kitoblar, texnik vositalar va o'qitish metodikalaridan ko'pdan buyon foydalanib kelinadi yoki oldindan rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'kituvchi faoliyati orqali amaliyotga joriy etilyapti. Shu bilan birgalikda PT- qotib qolgan, siquvga olingan loyiha emas, balki ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi qator omillarni baholash imkonini bera oladigan ijodkorlik, yaratuvchilik, fidoyilik natijasidir.

PT prinsiplarini aniqlashda quyidagi holatlar e'tiborga olinadi: 1. Mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadi. 2. Didaktik jarayonning ob'ektiv qonuniyatlari. 3. Ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladigan shart-sharoitlar.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish tuzilishi va mohiyati jihatidan **yaxlitlik prinsiplariga** asoslanadi. Bu prinsip loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini va o'zaro bog'liqligini e'tiborga olishni taqozo etadi. Ya'ni ta'lim maqsadining qat'iyani aniqlanishi (nega va nima uchun?) o'quv jarayoni mazmuni (nima?), tashkiliy shakllari (qanday?), o'qitish metodlari va vositalarini (nima yordamida?) saralash va tanlashga ko'maklashishi, shuningdek, o'qituvchining mahorat darajasiga bog'liq holda didaktik jarayon samarasini aniqlashga imkon berishi kerak.

Yaxlitlik prinsiplari PT elementlaridan birini yangilab yoki o'zgartirib, qolganlariga tegmaslikni, qayta qurmaslikni inkor etadi. Misol uchun, ta'lim maqsadini o'zgartirib, uning mazmunini yoki o'qitish jarayonini eskicha qoldirish mumkin emas. Nima uchun bugungi kunda Respublikamiz xalq ta'limi tizimida chuqur o'zgarishlar va islohatlar amalga oshirilyapti? Birinchidan, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi- erkin fikrlaydigan fuqaroni, barkamol insonni, shaxsni shakllantirish zarur. Ikkinchidan, bu ijtimoiy buyurtma o'z navbatida ta'lim mazmunini tubdan qayta qurishni- yangi o'quv dasturlari va darsliklarini yaratishni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni- axborotlarni o'quvchi (talaba)larga ma'lum vaqt chegarasida etkazish

jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni talab etadi. Ana shu vajdan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish Prezidentimiz tomonidan olimlarimiz oldiga vazifai qilib quyildi.

Pedagogik texnologiya **maqsadli ta`lim-tarbiya jarayonini** tavsiflaydi. Agar an`anaviy pedagogikada maqsad muammosiga nazariyachilar va amaliyotchilar kam e`tibor qaratishgan bo`lsa, PT da bu markaziy muammo hisoblanadi va uning ikki jihati amalda ajratib ko`rsatiladi: 1. Tashxislanadigan maqsadli ta`lim va o`quv materiallarini o`zlashtirish sifatini xolis nazorat qilish va baholash. 2. Umumiy holda shaxsni rivojlantirish.

PT o`quv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani sinfda amalga oshirishni ko`zda tutadi. Shu boisdan PT ning muhim prinsiplari- bu bo`ljak o`quv-tarbiyaviy jarayonni **oldindan loyihalash prinipidir.** Hamma ham loyiha muallifi bo`lavermaydi. O`qituvchi bu sharaflı nom- «pedagog texnolog» sohibi bo`lishi uchun didaktik masalalar va uni hal etish texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlari bilan chuqurroq tanishgan bo`lishi kerak. Bu esa, tabiiyki o`qituvchidan ijodkor faoliyatni talab etadi. Loyihalangan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilishi lozim. O`quv vaqti PTni oldindan qurishda muhim ko`rsatgich hisoblanadi va o`quvchi uni hisobga olishi shart. Loyihalananayotgan didaktik jarayon sinf o`quvchilarining o`zlashtirish darajalariga mos kelishi, hamma uchun tushunarli bo`lishi juda muhimdir. Shundagina yakuniy natija qo`lga kiritiladi.

Yakuniy natijaning kafolatlanishi PTning yana bir muhim prinsipidir. Bu tushuncha aslida nisbiy xarakterga ega. Sababi, tuzilgan texnologiya amalga oshirilgach, yaxshimi yomonmi, har qalay ma`lum natijalar bo`lishi- o`quvchilarning o`quv materiallarini turli darajada o`zlashtirib olishlari tabiiy. Biroq, bu erda yakuniy natija tasodifiy va past ko`rsatgichga ega bo`ladi. Gap o`quv-bilish faoliyatining keyingi ikki bosqichi haqida ketayapti: nazorat qiluvchi harakat (NH) didaktik jarayonning natijaviy yakunini aniqlab beradi va tuzatish amali (Tuz) o`quvchilarning past o`zlashtirishiga sabab bo`layotgan didaktik jarayon xatolarini yo`qotish usullarini ko`rsatadi. Xo`sh, yakuniy natija qanday bo`lishi kerak?

Bu savolga PT ning muhim prinsipi- **o'qitishning tugallangalik prinsipi** javobberadi.

O'quvchilarning tajribalarni o'zlashtirish sifati o'zlashtirish koeffisienti- $K_2 > 0,7$ bo'lsa o'qitish jarayoni yakuniga yetgan, tugallangan deb hisoblanadi $K_2 < 0,7$ bo'lsa o'quvchilar bilan yangi mavzuni o'rganish faqat «o'zlashtirmovchilar»sonini ko'paytiradi. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati- $K_2 = 0,55$ bo'lsa, ya'ni o'quv materialining 55 foizini o'zlashtirsa, «qoniqarli» deb hisoblanyapti. Bu ko'rsatgichni ta'lim tizimini isloh qilishning dastlabki bosqichi uchun yetarli deb hisoblash mumkin. Kelajakdagi ijobiy «portlash effekti» natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati ham oshib boradi va kelajakda rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tariladi. Demak, K_2 o'zgaruvchan qiymat bo'lib, ma'lum bir davlatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi tub o'zgarishlariga bog'liq.

PT ning prinsiplari birinchi galda, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgandir.

Ta'lim usullarining samaradorligi


Verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanilganda (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) o'quvchilar ma'lumotning 5% ini eslab qolishadi. o'qish ma'lumotning 10% ini saqlab qolishga imkon beradi, videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20% ini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Loyihalash usuli va ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi. Buni qo'yidagi o'qitish piramidasida qo'rishimiz mumkin:

O'qitish piramidasi¹


1. Ma`ruza, doklad	Eshitganimizning 5%
2. O'qish	O'qiganimizning 10%
3. Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish	Ko'rganimizning 20%
4. Tajribani namoyish qilish	Ko'rgan va eshitganimizning 30%
5. Munozara	Birga muhokama qilganimizning 40 %
6. Mashq	O'qigan,yozgan,gapirganlarimizning 50%.
7. Ishbilarmonlik o'yini, loyiha qilganlarimizning, muhokama, himoya, qilganlarimizning 75 %.	Mustaqil o'qiganlarimizning, tahlil yozganlarimiz va namoyish
9. Boshqalarni o'qitish ini.	Boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90%

Buni quyidagi chizmada tasvirlash mumkin:



Axborotni eslab qolish

Texnologik jarayonda ta'lim metodlarining quyidagi tizimi qo'llaniladi:



2.3. “Kiyim yangi modeli konstruksiyasini hisoblash va tuzishning dastlabki shartlari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotlarni olib borish texnologiyasi.

2.3.1 Gavda tuzilishi haqida ma’lumot” mavzusini amaliy mashg’ulot loyihasi

Amaliy mashg’ulotining ta’lim texnologiyasi

Amaliy mashg’ulot	Gavda tuzilishi haqida ma’lumot
<i>vaqti</i>	2-soat
<i>Amaliy mashg’ulotni olib boorish tartibi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Antropometriya, erkaklar va bolalar razmer tiplogiyas 2. Plastik anatomiya 3. Tana proporsiyasi turlari
<i>O‘qitishning maqsadi:</i> Gavda tuzilishlari amallarini o‘rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Gavda tuzilishlari haqida qisqacha ma’lumot berish • Antropometriya, erkaklar va bolalar razmer tipologiyasini tanishtirish; • kishi gavdasining tashqi shaklsi qad-qomatni o‘ratadi; <p>Tana proporsiyasi bo‘yicha instruktaj berish berish;</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Gavda tuzilishlari haqidagi qisqacha ma’lumotga ega bo‘lish; • Antropometriya, erkaklar va bolalar razmer tipologiyasini haqida fikrini bayon etadi; • kishi gavdasining tashqi shaklsi qad-qomat bo‘yicha bilimlarini tushuntirib beradi; • tana proporsiyasi bo‘yicha bilimlarini tushuntirib beradi
<i>O‘qitish usullari va texnikasi</i>	Amaliy mashg’ulot, namoyish etish, tezkor savol-javob, “Muammoli vaziyat” metodi, “To‘rt pog‘onali” ta’lim metodi. BBB metodi
<i>O‘qitish vositalari</i>	Yo‘riqnomalar, tarqatma materiallar, slaydlar. Video lavhalar.

<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa, kichik guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

O'quv amaliyotini o'tkazish bosqichlari	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Kirish. <i>5 daqiqa</i>	Mavzuni e'lon qiladi va ichidagi vazifani tushuntiradi. Ishning ketma-ketligi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglab, eshitadi.
2-bosqich: O'quv materialini bayon etish. <i>10 daqiqa</i>	Gavda tuzilishlarini tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligini bayon qiladi.	Tinglab, eshitadi.
3-bosqich. Kirish yo'riqnomasi. <i>10 daqiqa.</i>	Talabalarni belgilangan tartibda kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruh o'quvchilari yo'llanma xaritasi bilan ta'minlanadi. Gavda tuzilishlarini rasmlarda amalda ko'rsatadi. Har bir ish joyda qanday ish olib borilishi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi, vazifani bajarish uchun vaqt belgilaydi.	O'qituvchi bajarayotgan ishni diqqat bilan kuzatadi.
4-bosqich. Amaliy ish. <i>45 daqiqa.</i>	Gavsa tuzilishlarini o'rganish jarayon ketma-ketligining to'g'ri bajarilishi <ul style="list-style-type: none"> - Gavdani tanlash; - Gavdaning qaysi tipga mosligini aniqlash; - Boshqa gavdalar bilan o'zaro farqini aniqlash; - Gavda rasmlarini qo'lda chizish, asoslash; - Ishni topshirishga tayyorlash. 	Berilgan topshiriqning maqsad va vazifalari yozib olinadi. Har bir ish joyida berilgan yo'l-yo'riq xaritasini o'rganadilar va amaliy bajaradilar. Berilgan vaqtga qarab ketma-ketlik asosida kiyim bo'laklariga ishlov beradilar. Vazifani mustaqil bajaradilar.
5-bosqich.	Har bir o'quvchining bajargan ishlarini qabul qiladi va yakun yasaydi. O'quvchilarni	Bajargan amaliy ishini topshiradilar, test savollariga

Baholash, tahlil qilish va yakunlash <i>10 min.</i>	baholash uchun test savollarini beradi. baholash natijalarini e'lon qiladi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi. Uyga vazifa va uni bajarish uchun tavsiyalar ko'rsatadi.	javob beradilar, baho natijalarini eshitadilar, tahlil qiladilar. Uy vazifasini daftarga yozib oladilar.
--	--	--


O'quv vizual materiallar.

1-Ilova

<p>Mavzu: Gavda tuzilishlarini o'rganish</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none">1. Gavda namunasini tanlash2. Gavdaning qaysi tipga mosligini aniqlash3. Gavdalarni o'zaro solishtirish4. Gavda rasmini chizish5. Rasmiylashtirish
--

2-Ilova

<p>Tezkor-so'rov</p> <ul style="list-style-type: none">* Gavdaning qanday tiplarini bilasiz?* A'ndom nima?* Kiyimlarni konstruksiyalashdagavda tuzilishlari qanday rol o'ynaydi?*Bunak metodi haqida nima bilasiz?



Gruhlarda ishlashni baholash.


Guruhlar	Javobning to'liqligi. (1,0)	Sxemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi (0,6)	Ballar.	Bahosi.
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Talabalar faoliyatini baholash mezonlari.


86 – 100 % 2 ball «a'lo»

71 – 85 % 1,7 ball «yaxshi»


55 – 70 % 1,4 ball «qoniqarli»



Rasm. Tananing bo'yin qismi balandligi



Rasm. Tananing yelka qismi balandligi.



Andom turlari

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish

Modulning maqsadlari

- **O'quv maqsadi:** Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish
- **Aniq maqsadlar:** Tinglovchilar modulni o'rganish natijasida qo'yidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:
 - Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlarini farqlay oladilar;
 - Dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlarini bilib oladilar;
 - An'anaviy ta'lim metodlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi;
 - Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llay oladi;
 - An'anaviy va interfaol ta'lim metodlarining afzalligi va kamchiliklarini tahlil qila oladi.



"TO'RT POG'ONALI METOD

"TO'RT POG'ONALI"metod-

amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonining to'rt pog'ona doirasida kechadigan metoddir.



«TO‘RT POG‘ONALI» metodning tuzilmasi



BBB jadvali

Bilaman,


Bilishni xoxlayman,

Bildim.

- matn, (mavzu, bo'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib boorish imkonini beradi;

- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

BBB jadvalini tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi.



↓

Quyidagi savolga javob beriladi. «Ushbu mavzu bo'yicha nima bilasiz?» va «Nimani bilishni xoxlaysiz?» (Kelgusi ish uchun taxminiy asos yaratiladi)

↓

Yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1-chi va 2-chi ustuni to'ldiriladi.

Mustaqil ravishda ma'ruza matnini o'qiydi (ma'ruzani eshitadi)

Jadvalning 3-ustunini mustaqil (juftlikda) to'ldiradi.

BBB jadvalini to'ldirish uchun tavsiyalar:

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing. бора ва тушунчалар билан танишиб чиқинг.
2. BBB jadvalini to'ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3

III-BOB. MEХНАТ ГИГИЕНАСИ ВА ХАВФСИЗЛИГИ

Tabiatni muxofaza qilish Qonunining 4- moddasiga (1993 yil9 dekabrda O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan « Tabiatni muxofaza qilish » to'g'risidagi qonun)qanday mutaxassis tayyorlanishidan qat'iy nazar barcha o'rta va oliy o'quv yurtlarda fuqorolarning hayoti uchun qulay tabiiy muxitga ega bo'lish huquqini ta'minlash uchun ekologik o'quvning majburiyligi belgilab qo'yilgan. Bu borada xar bir mutaxassislik bo'yicha o'qitiladigan maxsus kurslar, respublikamizning tabiiy resurslaridan unumli foydalanish jarayonida uni muxofaza qilish uchun oqilona tadbirlar ko'rishga o'rgatish va atrof muhitni muhofaza qilishning texnologik jarayonini e'tiborga olishlari zarur.

Ekologiya grekcha «OIKOS» so'zidan olingan bo'lib, «yashash joyi», «oziqlanish makoni « ma'nosini bildiradi.

Hozir sayyoramizdagi muvozanat buzilishining oldini olish eng katta muammodir. Sanoatning rivojlanishi, tabiiy boyliklardan o'ylamasdan foydalanish tabiatga, atrof-muxitga katta zarar yetkazadi. Shu tufayli tabiatni muxofaza qilish masalasi, undan unumli va to'g'ri foydalanish, birinchi navbatda ekologik qonuniyatlarga asoslanib ish yuritish kishilik jamiyatining asosiy vazifalaridan biridir;ekologiya fani esa bu vazifani bajarishda asosiy rol o'ynaydi. Ekologiya fani hozirgi vaqtda bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan:

Umumiy ekologiya – barcha organizmlarning muxit-sharoitlari bilan o'zaro munosabatlarini, ya'ni ma'lum individlar ekologiyasini o'rgatadi;

Fiziologiya-ekologiyasi – organizmlarning muxit sharoitlariga moslashish natijasida ularda sodir buladigan fiziologik o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rgatadi

Biokimyoviy ekologiya – o'zgarib turuvchi muxitga moslanish jarayonida organizmlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni molekula nuqtai-nazaridan o'rgatadi va xokazo.

XX asrning oxirida insrniyat oldida o'ta muxim va ulkan muammolar paydo bo'ldi. Yerdagi hayotning saqlab qolinishi bu muammolarning hal qilinishiga bog'liq bo'lib qoldi. Bu tabiiy muxitning o'zgarishi, biosferaning ifloslanishi, xom-ashyo, energitika va oziq-ovqatlar krizislari bilan bog'liqdir.

Kishilik jamiyatining iqtisodiy manfaatlari – tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga o'zining moddiy ehtiyojlarini qondirishdir. Ekologik manfaatlar esa kishilik jamiyati faoliyatining tabiat uchun zararli, masalan, atmosfera va suvning ifloslanishi, atmosferada karbonad angidridning ko'payishi natijasida yerdagi parnik effektining rivojlanishi kabi oqibatlarni bartaraf etish manson uchun ongli zaruriyatdir. Iqtisodiy va ekologik manfaatlar qarama-qarshiliklar kurashida ob'yektiv mavjud bo'ladi. Ularning birligi shundan iboratki ular jamiyatning xayot farovonligini taminlashsha qaratilgan, lekin mazmuni, maqsali va ularga erishishi jixatidan qarama-qarshidir. Masalan, kishilik jamiyatining yashashi uchun o'rmonlarni barbod qilib va atmosferaga karbonat angdrid chikarib, yokilgini yokish kerak,lekin Yerdagi butun tabiatni nobud kilmaslik uchun bunday qilish yaramaydi. Uzbekistonda tabiatni muxofaza qilish jamiyati 1962 yil mart oyida tashkil etilgan. Surxondaryoda 1962 yil 10 avgustda tuzilgan. 1978 yilda Gidrometeorologiya va tabiiy muhit nazorati Davlat komiteti tuzilgan. 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston tabiatni muxofaza qilish davlat komitetiga aylantirildi.

Xavf-xatar-xayotiy faoliyat xavfsizligining markaziy tushunchasi bulib, odam sogligiga bevosita yoki boshka yullar bilan zarar yetkazmaydigan, ya'ni kungilsiz xodisalar, okibat yaratuvchilar tushuniladi. Xavoni ifodalaydigan belgilar soni tajribani maksadga karab kup yoki kamligiga boglikdir.

Xavfning bunday tushunchasi olidngi standart tushunchalarni (ishlab chikarishning xavfli va zararli omillari) uz ichiga oladi, chunki xayotiy faoliyat xavfsizligi (XFX) da faoliyatning xamma shakllari va omillarini nazarda tutadi.

Xayotiy faoliyatga tugri kelmaydigan elementlar sistemasi va kimyoviy va biologik aktiv kismlar tartibi xavfga egadir.

Mexnat sharoitining yaxshilanishi sotsial natijalarga - ya'ni mexnatkashlarning sogligini yaxshilash, uz ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mexnat intizomini mustaxkamlash, ishlab chikarish va jamoat faoliyatini oshirishga olib keladi.

Mexnat muxofazasi talablariga javob bermaydigan biron bir yangi mashina yoki mexanizm ishlab chikarishga kabul kilinmasligi kerak. Shuningdek mexnat muxofazasi talablariga javob bermaydigan biror sex yoki korxonona ekspluatatsiyaga tushirilmasligi kerak.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 10 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qisqacha yoritildi.

BMI ning birinchi bobida gavda tuzilishlari, ularni kiyimni konstruksiyalashda tutgan o'rni, asosiy antropometrik nuqtalar, gavdadan o'lchov olish yo'llari o'rganib, taxlil qilindi.

BMI ning ikkinchi bobida esa mavzuni Kasb-hunar kollejlari yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish uslubiyoti ishlab chiqildi.

- **“Gavda tuzilishlarini o'rganish” mavzusining** amaliy mashg'uloti “To'rt pog'onali”, kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan ta'lim metodlari asosida loyihalandi.

- Gavdadan o'lchov olish usuli amalda qo'llanildi. Ushbu metod asosida ko'ylaklarni amalda bichib-tikib sinab ko'rildi. Ayniqsa mavzuni yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda (Qarshi Pedagogika kollejida amaliyot davomida) o'tilganda yaxshi natijalarga erishildi. Talabalarni qiziqishlari ortdi. Ushbu metodimiz sodda va konstruksiyasi qulay bo'lgani uchun talabalarni ko'pchiligi gavdadan o'lchov olish amallarini mustaqil bichishga erishdilar

Асосий ва қўшимча адабиётлар

1. Комилова Х.Х, Хамраева Н.Х. Тикув буюмларини конструкциялаш. Тошкент. 2003 й.
2. Мартынова А.И., Андреева Е. Г. Конструктивное моделирование одежды. ЛП 2002 г.
3. Янчевская Е.И. Аёллар устки кийимини конструкциялаш. Ўқитувчи, 1997.
4. Коблякова Е.Б. “Конструирование одежды с элементами САПР”. Москва.1988 г
5. Г.К.Хасанбаева, О.И. Крымова. Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш. 1990 й.
6. Кокеткин П.П. Справочник по конструированию одежды. Москва. 1982
7. Шершнева Л.П. “Конструирование женских платьев” Москва. 1991 г.
8. Козлова Т.В. «Основы теории проектирования костюма».Москва. Легпромбытиздат 1988г.
9. «Швейная промышленность», «Ателье», «Индустрия моды», «Burda moden», «International textile» журналининг сонлари.
- 10.Кулиджанова Г.К., Мусаев С.С. Енгил саноат маҳсулотлари технологияси. – Т.: Гафур Гулом, 2002.

а. Маъруза мантлари, услубий қўлланма ва кўрсатмалар.

- 11.Комилова Х.Х. «Тикув буюмларини конструкциялаш. » Тошкент 2003 й.
- 12.Электрон дарслик.
- 13.«Тикув буюмларини конструкциялаш» фанидан маърузалар тўплами. Гафурова Н.Т., Нутфуллаева Л.Н.
- 14.«Швейная промышленность» журналининг сонлари.
- 15.«Промышленная технология одежды» ” журналининг сонлари.
- 16.«Ателье журналининг сонлари.
- 17.«Burda moden» журналининг сонлари.

Интернет сайтлари:

www.sarafan.ru www.nbgf.intal.uz

www.nbgf.intal.uz

www.ocinka.ru

www.textile-press.ru

www.textilegroup.ru

www.vgik.info

e-mail – mail@vgik.info

www.pencil.nm.ru

artinst @ mail.ru

ychednoe@ mail.ru

www.msus.org.

[www. artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru)